

**OTA-ONA O'RTASIDAGI KELISHMOVCHILIKLARNING
FARZANDLAR PSIXIKASIGA TA'SIRI****Narziyeva Farida Abduxamid qizi***G'uzor tumani 17-maktab*

Annotatsiya: Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan turmushdagi va oila a'zolari munosabatlaridagi o'zgarishlar uning moddiy-maishiy, iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir.

Kalit so'zlar: oila, nizo, kelishmovchilik, fikr, ota-ona, farzand tarbiyasi...

Inson o'z hayotida bolalik davridanoq boshqa insonlar bilan turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Inson hayoti boshqalar bilan bo'ladigan turli munosabatlarning uzluksizligidan iborat bo'lgan jarayondir. Ana shu munosabatlar esa har doim ham bir tekis, silliq va tinch davom etavermaydi. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Biz ularni konfliktlar deb ataymiz. Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos jarayon bo'lib, hech bir inson o'zini komil ishonch bilan konflikt vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir. Psixologik jihatdan konfliktlarni o'rganish faqat nazariy emas, balki juda muhim amaliy ahamiyatga ham ega. Fanning bu sohasi vaziyatlarda yuzaga keluvchi konfliktlarning oldini olishga, ularni hal qilish uchun samarali choralarni qo'llashga yordam beradi. Oila insonlarni birlashtirib turuvchi eng kichik ijtimoiy birlik bo'lib, uning tinchligi, ravnaqi va barqarorligi jamiyat tinchligi va barqarorligi hisoblanadi. Shu bois, J.Santayana "Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir", deydi. Oila – ma'naviyat o'chog'i. Aynan oilada insonning ma'naviy qadriyatlari shakllantiriladi. Insonning har tomonlama unib-o'sishi uchun sharoit yaratiladi. Biroq, aynan oila tarkibida, insonlarning juda yaqin aloqalari va ma'lum munosabatlarga kirishishi natijasida turli inqirozlar, ziddiyatlar, nizolar kelib chiqadi. O'zbek oilasining tarixiy rivojlangan o'z milliy an'analari mavjud. Ular oiladagi tomonlar majburiyatlari, mas'uliyati va huquqlarini belgilab beradi. Ham ayol kishi uchun, ham erkak kishi uchun ma'lum talablar qo'yiladi. Ayol kishi ko'proq uyda, bolalar tarbiyasi va uy yumushlari bilan shug'ullanishi lozimligi, erkak kishining esa – oila a'zolarining moddiy ta'minotini amalga oshirishi lozimligi aytiladi. O'zbek oilasi o'z rivoji bosqichlarida islom dini qadriyatlarini ham o'ziga singdira olgan. Shu bilan birga oila instituti har vaqt o'z davrining ijtimoiy, iqtisodiy talablariga hamoxang

tarzda o'sish va takomil jarayonida bo'ladi. Agar avvallari oila instituti o'zining kichik bir dunyosi ichida tashqi ta'sirlardan bir qadar erkin yashagan bo'lsa, hozirda har bir oila va uning a'zolariga globalizatsiya sharoitida juda katta axborot oqimlari o'z ta'sirini o'tkazadi. bu ham ma'lum darajada oilaviy konfliktlarni eltirib chiqaradi.

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan turmushdagi va oila a'zolari munosabatlaridagi o'zgarishlar uning moddiy-maishiy, iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir. Oila a'zolarining o'zaro muomalalarini tadqiq qilgan venger sosiologi M.Komlosi 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhiti (vaziyat, sharoit, holat) omillarini to'rt rypyga ajratadi: 1) ota-onalarning jamoatchilik faoliyati (ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari); 2) oila ichidagi munosabatlari (ota va ona munosabati, ota-onalarning buva va buviga munosabatlari, aka-ukalar va opa-singillarning o'zaro munosabatlari); 3) ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati (ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari, maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati); 4) oilada o'quvchining faoliyati (o'quvchining kundalik tartibi, xo'jalik ishlaridagi muayyan majburiyati) va boshqalar. M.Komlosi yiqqan materiallarini tahlil qilib, oila muhiti (vaziyati, sharoiti, holatini) uch toifaga: ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy toifalarga ajratadi. Psixolog olim V.I.Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir, degan xulosaga keladi. Muallif oilalarni yo'nalishiga qarab, uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib beradi: ijtimoiy-ilg'or yo'nalishdagi oila, ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oila, past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oila. Halqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bor, tabiiyki har bir bola o'z ota-onasidan o'rnak oladi. Oiladagi doimiy konfliktlar, ota-onaning kelishmovchiliklari bolaning ruhiyatiga birinchi navbatda, tarbiyasiga, dunyo qarashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bizning halqimiz azal-azaldan bunga e'tibor qaratishgan xususan, Mahmud Qoshg'ariy bu to'g'risida o'sha davridayoq fikr bildirganlar "Axloqiy tarbiyani izchil va tartibli amalga oshirishda oila muhiti g'oyat muhim rol o'ynaydi. Inson axloqiy, ma'naviy va ruhiy qiyofasining poydevori oilada qo'yiladi. Shuning uchun ham mashhur allomalar oila tarbiyasiga katta e'tibor berishgan hamda shu masalaga bag'ishlab qator qimmatli asarlar yozishgan. Dono xalqimiz «Bola — boshidan, nihol — yoshidan» degan naqlni bejiz aytmagan. Modomiki shunday ekan, yosh avlodni tarkib toptirish, tarbiyalash ishini yoshlikdan, oiladan boshlash kerak. Bi-nobarin, oiladagi tarbiya jarayonida har bir daqiqa va fursatni qo'ldan boy berish orqali ota-onalar keyinchalik ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladilar. Axir, noto'g'ri tarbiya tufayli nafs balosi o'qiga giriftor bo'lgan o'n gulidan bir guli ham ochilmay turib umri

xazon bo‘lgan yoshlar kammi? Donishmand tili bilan aytganda, «Qapg‘a ochlik, tashnalikning qiyinchiligini sezsa, muzni teshadi; bekinib turgan ovchini ko‘rmay, uning tuzog‘idagi donlar uchun parvo qilmay kiravsradi»⁴ Ota-ona obro‘cini orttirishda, eng avvalo, ibrat-namuna muhim rol o‘ynaydi. Oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-ona tinmay o‘zlarini tarbiyalab borishlari kerak. O‘zlarida yetishmaydigan sifat va fazilatlarni to‘ldirib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim. Chunki ota-onalarning tarbiya jarayonidagi ists‘dodi — bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir. Agar ota-onalar o‘zlari kelisishmasa ularni bola oldidagi hurmtlari yo‘qoqladi. Har kun ota-onasining janjaliga voqif bo‘ladigan farzand uydin qochishga ko‘proq ko‘chaga intilish ularda kuchayib ketadi. Buning oqibatida bolaning psixologiyasiga salbiy ta‘sir kuchayadi so‘ngra har xil deviant holatlar bolada kuzatilishi mumkin. Bu jamiyatimiz uchun juda kotta zarardir. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun Ota-ona farzandlar o‘rtasida obro‘ga ega bo‘lishlari kerak, buning uchun qator chora va tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Dastavval ular turli yoshdagi farzandlari ruhiy dunyosiga mos muomala qilishlari darkor. Kichik, o‘rta va katta yoshdagi o‘g‘il-qizlar bilan muloqotda ularning yosh xususiyatlariga mos muomalada bo‘lish shart. Oilada totuvlikning mavjud bo‘lishi barcha muvaffaqiyatlarning garovidir. Chunki oila a‘zolarining bir-biriga bo‘lgan munosabatlari kelajak avlodning qanday shaxs bo‘lib voyaga yetishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Inomova M.O. Oilada bolalarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi. –T.: TDPU, 1999;
2. Musurmonova O. Oila ma‘naviyati – milliy g‘urur. –T.: O‘qituvchi, 2000;
3. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2000;
4. Xolmatova M., Muravyeva N. Yoshlar oilaviy hayot bo‘lag‘asida.-T.: O‘zbekiston, 2000;
5. M.Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk, Toshksnt, 1960, 401-bet
6. .www.Ziyonet.uz 7. www.fikr.uz 8. www. edu. Uz 4 M.Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit tur